O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI G‘IJDUVON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200500, G‘ijduvon tumani, Mustaqillik maydoni 2-uy. Tel: (365) 572-12-35, faks: (365) 572-13-33, e-mail: gijduvon_th@umail.uz

2023 - yil 14 - sentabr 297-2-34-Q/23 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumani “Baqqollar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan o‘tuvchi 4K160 “Navoiy viloyat chegarasi –G‘ishti q. –G‘ijduvon sh. –Ko‘lxatib q. –Hovuzduvon q. –Neogan q. –Romitan sh.” avtomobil yo‘lining 14-15 km qismiga “*3.4*-Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuniga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-iyundagi 264/22-sonli “Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini yaxshilash, turizm salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorga asosan yo‘l ta’mirlash ishlari dasturiga kiritilgan G‘ijduvon tumani “Baqqollar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan o‘tuvchi 4K160 “Navoiy viloyat chegarasi –G‘ishti q. –G‘ijduvon sh. –Ko‘lxatib q. –Hovuzduvon q. –Neogan q. –Romitan sh.” avtomobil yo‘lining 14-15 km qismi mukammal ta’mirlanganligi hamda Baqollar mahalla fuqarolar yig‘ini Baqollar aholi punktida yashovchi fuqaro Mardonov G‘ayratning murojaatini inobatga olib

QAROR QILAMAN:

1. G‘ijduvon tumani “Baqqollar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan o‘tuvchi 4K160 “Navoiy viloyat chegarasi –G‘ishti q. –G‘ijduvon sh. –Ko‘lxatib q. –Hovuzduvon q. –Neogan q. –Romitan sh.” avtomobil yo‘lining 14-15 km qismi mukammal ta’mirlanganligi hamda Baqollar mahalla fuqarolar yig‘ini Baqollar aholi punktida yashovchi fuqaro Mardonov G‘ayratning murojaati inobatga olinsin.

2. G‘ijduvon tuman yo‘llardan foydalanish UK rahbari E.Farmonovga G‘ijduvon tumani “Baqqollar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan o‘tuvchi 4K160 “Navoiy viloyat chegarasi –G‘ishti q. –G‘ijduvon sh. –Ko‘lxatib q. –Hovuzduvon q. –Neogan q. –Romitan sh.” avtomobil yo‘lining 14-15 km qismi mukammal

ta’mirlanganligini, bugungi kunda mazkur yo‘lning texnik va o‘tkazuvchanlik holatini saqlash, katta gabaritli og‘ir yuk avtomashinalarini qatnovini cheklash maqsadida yo‘lning yukka bardoshlilik darajasini inobatga olib, “***3.4***-Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgisi talablariga asosan 1-ilovaga muvofiq yo‘l belgisi o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman IIB YHXB boshlig‘i J.Toshpo‘latovga, G‘ijduvon tumani “Baqqollar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan o‘tuvchi 4K160 “Navoiy viloyat chegarasi –G‘ishti q. –G‘ijduvon sh. –Ko‘lxatib q. –Hovuzduvon q. –Neogan q. –Romitan sh.” avtomobil yo‘lining 14-15 kilometr qismiga muntazam ravishda yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilish maqsadida bir nafar xodim ajratish topshirilsin.

4. Mazkur qaror “G‘ijduvon” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Ashurov**

G‘ijduvon tuman hokimining
2023-yil 14-sentabrdagi
297-2-34-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziyko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgisi va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	G‘ijduvon tumani “Baqqollar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan o‘tuvchi 4K160 “Navoiy viloyat chegarasi –G‘ishti q. –G‘ijduvon sh. –Ko‘lxatib q. –Hovuzduvon q. –Neogan q. –Romitan sh.” avtomobil yo‘lining 14-15 km o‘ng va chap tomonida	“***3.4***-Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan” yo‘l belgisi